

## OGAHIYNING “RIYOZ UD-DAVLA” ASARIDA TARIXNAVISLIK MAHORATI

**Anvarova Marjona**  
**Farg‘ona davlat universiteti Filologiya**  
**fakulteti filologiya va fanlarni**  
**o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi**

**Annotatsiya:** Maqolada Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandasi Muhammad Rizo Ogahiyning hayot faoliyati hamda “Riyoz ud-davla” asari haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Muhammad Rizo Ogahiy, saroy tarixchisi, mohir tarjimon, Ogahiy maktabi, mirob, “Riyoz ud-davla” ( Saodat bog‘lari) asari, Xiva tarixi.

**Annotation:** The article provides information about the life and activities of Muhammad Rizo Ogahiy, a prominent representative of the Khorezm literary environment, as well as about his work “Riyoz ud-davla” (“Gardens of Happiness”).

**Keywords:** Muhammad Rizo Ogahiy, court historian, skilled translator, Ogahiy school, mirab, “Riyoz ud-davla” (Gardens of Happiness), history of Khiva.

**Аннотация:** В статье представлена информация о жизни и деятельности Мухаммада Ризы Огахий — крупного представителя литературной среды Хорезма, а также о его произведении «Риёз уд-давля» («Сады счастья»).

**Ключевые слова:** Мухаммад Риза Огахий, придворный историк, искусный переводчик, школа Огахий, мираб, «Риёз уд-давля» (Сады счастья), история Хивы.

XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik namoyondasi Muhammad Rizo Ogahiy serqirra iste'dod sohibi bo'lib, shoirlik iqtidori, tarixnavis salohiyati, tarjimonlik mahorati bilan o'zbek adabiyoti va tarixi ravnaqiga katta hissa qo'shgan. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy 1809-yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida tavallud topgan adib: “Biz Xivada yashovchi yuz toifasidan bo'lgan Amir Eshimbiyning avlodidandirmiz”, – deb yozgandi. Erniyozbek mirob 1812-yilda

vafot qilgandan keyin Olloqulixon Shermuhammad ibn Avazbey mirob o'g'li Munisni mamlakatning bosh mirobi qilib tayinlaydi. Munis Ogahiyning amakisi bo'lib, otasi o'rnida Ogahiyga 1829-yilgacha g'amxo'rlik qilgan. Uning bolalik va yoshlik yillari Qiyot qishlog'ida o'tdi va ulg'aygach Xivadagi madrasalardan birida tahsil ko'rdi. Arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti, shuningdek klassik musiqa hamda tarix fanini qunt bilan o'rgandi. She'riyat olamida uning taxallusi Ogahiy bo'lib, lug'aviy ma'nosi "ogohman", "sergakman" demakdir. U mohir hattot bo'lib kufiy, rayhoniy, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan. Ogahiy yashagan davrda Xivada yetti marta xon almashgan, muallif ularning faoliyati davrida bo'lgan tarixiy voqealarni bayon etuvchi beshta tarixiy asarlarini yozishga muvaffaq bo'lgan. Jumladan, Olloqulixon hukmronligi davrini (1825 – 1843) yorituvchi "Riyoz ud-davla" ("Saltanat bog'lari") asari shular jumlasidandir. Bu asarni yozishda muarrixga 1844-yilda Muhammad Ya'qub mehtar homiylik qilgan. Ushbu tarixiy-adabiy manbaning qimmati shundaki, unda Olloqulixon davrida yuz bergan voqealar, ichki va tashqi savdo, diplomatik aloqalar, xalqning turmush tarzi, madaniyati, mamlakatda hukm surgan diniy ahvol keng yoritilgan. Ogahiy o'zining "Riyoz ud-davla" asarini, shuningdek, quyida keltirilgan asarlarni yozar ekan, o'sha davr tarixchilarning an'anasiga muvofiq, hamd va na't bilan boshlaydi. So'ngra o'z hayoti haqida qisqacha gapirib, Olloqulixonni maqtaydi. Undan so'ng tarix ilmiga ta'rif berib, bu asarning yozilish tarixiga va buning yozilishiga sababchi bo'lgan shaxslar haqida gapiradi. So'ngra voqealarni bayon etishni Olloqulixonning tug'ilishidan boshlab, to vafotigacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealar haqida yozadi. Asarning muqaddimasida muallif juda kamtarlik bilan bu asarning yozilishi haqida gapiradi: "Erniyozbekning o'g'li Muhammad Rizo mirob taxallusim Ogahiy o'z ahvolimni quyidagicha bayon etaman. Yoshlik chog'larimda boshimga har xil va turli-tuman tashvishlar tushdi. Har tarafdan boshimga balo toshi yog'di. Hamisha ko'nglinga tinchsizlik va ta'bimda xavf hukm surar edi. Lekin jahondin yetgan har xil alamlardan olimlar va shoirlarning suhbatida bo'lish bilan biroz tarqatar edim. O'z ahvoli haqida yuqorida zikr etilgan ma'lumotlarni keltirganidan so'ng, bu asarning yozilishi haqida quyidagilarni keltiradi: "Bu asarni

yo'zishga boshladim. Asar yo'zish davomida menga Muhammad Yoqub mehtar yordam berdi. Bu asarni "Riyo'z ud-davla" nomi bilan atadim. Asarda o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy holati, xonlikda yashovchi turli elatlar o'rtasidagi munosabatlar, harbiy yurishlar, diplomatik aloqalar, ma'rifat masalalari, shuningdek, shoirlar, olimlar, siyosatchilar va faqihlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Asarda Ogahiy shunday fikrni ilgari suradi:

Sulton xalqni ezmasligi, faqihlar ahvolidan doimo xabardor bo'lishi, o'zining shon-shavkatidan mag'rurlanmasligi, murojaat qiluvchilarga saxovatli va adolatli bo'lishi, fuqarolarini xursand tutishi lozim. Xorazm mutafakkirlarining "Adolatli podsho" haqidagi g'oyalari garchi orzu mahsuli bo'lsa-da, katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega edi. Bu g'oyalar sharq falsafasiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. 1827–1828 yillarda Olloqulixon davrida Aydo'stbi boshchiligida qoraqalpoqlar zulm, tengsizlik va adolatsizlikka qarshi qo'zg'olon ko'targan. Ogahiy bu qo'zg'olonni xalqning kuchini ifodalovchi hodisa sifatida tasvirlaydi va quyidagi misralar orqali xalq kuchini "uchqun" va "to'lqin" timsollari bilan ifodalaydi: "Agar uchqunlar orasida jom so'nsa — albatta olov chiqadi, agar har tomchidan birlashsa — sekin-asta to'lqin hosil bo'ladi." Ogahiy mamlakatdagi xalqning ahvoli, ochlik va kambag'allikdan chuqur iztirob chekkanini yozadi: "Bechora va kambag'allar ochlikdan halok bo'ldilar." Olloqulixon haqida Ogahiy asarida adolatparvar, ilmga qiziqqan, xalq uchun foydali ishlar qilgan podsho sifatida tasvirlanadi. Ogahiy unga katta hurmat bilan qaraydi, uni "xalq farovonligi uchun mehnat qilgan hukmdor" deb ta'riflaydi. Asarda aytilishicha, Olloqulixon: Xivada ko'plab madrasa, masjid va inshootlar qurgan. Ilm-fan va adabiyotga homiylik qilgan. Xorazmda sug'orish tizimini yaxshilab, dehqonchilikni rivojlantirgan. Ogahiy yozadi: "Uning adolati bog'larni yashnatdi, elga tinchlik berdi." Bu so'z bilan Ogahiy hukmdor adolatli bo'lsa, xalqning turmushi obod bo'ladi degan fikrni ilgari surgan. Olloqulixonning tashqi siyosati haqida esa tashqi aloqalarga ham e'tiborli bo'lganligini aytib o'tadi. U doimo Xiva xonligini mustaqil va mustahkam saqlashga intilgan. Ba'zi janglarda qatnashgan, ammo Ogahiy u urushlarni "mamlakat tinchligini saqlash uchun zarurat" deb tushuntiradi. Ogahiy Olloqulixonning vafotini

ham chuqur iztirob bilan yozadi. U shunday mazmunan shunday deydi: “Davlat bog‘ining eng chiroyli gulini ajal yuldi, ammo uning nomi xalq qalbida abadiy qoldi.”

Ya’ni, Ogahiy uchun Olloqulixon — nafaqat tarixiy shaxs, balki adolat timsoli edi, desak, shubhasiz adashmagan bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ogahiyning tarixiy asarlari tarixiy hamda adabiy jihatdan bebaho manbadir. Uning ijodiy merosi adabiyot va madaniyat tariximizning eng yorqin sahifalaridan biri bo‘lib, she’riy merosi hozirgacha yosh ijodkorlar uchun ibrat maktabi, tarjimalari jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan xalqimizni tanishtirishda xizmat qilmoqda, tarixiy asarlari esa XIX asr Turkistonining siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotini o‘rganishda muhim manba bo‘lib qolmoqda. Ogahiy — nozik fikrli tarixchi, iste’dodli shoir va mohir tarjimon sifatida o‘z davri tarixini chuqur tahlil qilgan, xonliklarning tanazzul sabablarini ko‘rsatib bergan ijodkordir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. Vjild. Tarixiy asarlardan parchalar. Nashrga tayyorlovchi Subutoy Dolimov. Mas’ul muharrir G‘ulom Karimov. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
2. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy.  
<http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>
3. MUHAMMAD RIZO OGHIYNING "RIYOZ UD-DAVLA" ASARIDA XIVA HAYOTI [ochildiyevqobiljon@gmail.com](mailto:ochildiyevqobiljon@gmail.com) <https://doi.org/10.5281/zenodo.7714411v>